

## O'SMIRLARDA KASBGA MOYILLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Yuldasheva Mahliyo Baxtiyorovna,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Ergasheva Gulnora Oltiboy qizi  
Pedagogika-psixologiya yo'nalishi talabasi  
Farg'onan davlat universiteti

*Annotatsiya. Hozirgi kunda yoshlarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri o'z imkoniyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlariga mos kasbni tanlashdir. Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb – nafaqat daromad topish manbayi, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat hamdir. Shuningdek, insonning hayoti ko'p jihatdan uning kasbiga bog'liq. Ushbu maqolada ta'limgagini kasb tanlashga oid muammolarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, yoshlarni kasbga yo'naltirishda kasb tanlash motivlarining ahamiyati tahlil qilingan.*

*Tayanch so'z va iboralar: kasb tanlash, ijtimoiy-psixologik yo'nalganlik, motiv, kasbiy shakllanish, kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy mahorat.*

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ У ПОДРОСТКОВ

Юлдашева Махлиё Бахтиёровна  
доктор философии по психологическим наукам, PhD

Эргашева Гулнора Олтибай кизи  
студент направления педагогика-психология  
Ферганский государственный университет

*Аннотация. В настоящее время одной из важных задач, стоящих перед нашей молодежью является выбор профессии, соответствующей ее возможностям, интересам, способностям. Выбор профессии - один из самых важных выборов в жизни каждого человека. Профессия - это не только источник заработка, но и деятельность, на которую тратится основная часть жизни. Также жизнь человека во многом зависит от его профессии. В данной статье дается объяснение социально-психологическим особенностям профориентационного образования. Рассматривается влияние профориентационных мотивов в формировании профессиональных навыков у подростков.*

*Ключевые слова и выражения: профориентация, социально-психологическое сопровождение, мотивы, профессиональное формирование, профессиональное самосознание, профессиональное мастерство.*

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PROFESSIONAL ORIENTATION IN ADOLESCENTS

Yuldasheva Makhliyo Bakhtiyorovna  
Doctor of Philosophy in Psychological Sciences, PhD

Ergasheva Gulnora Oltiboy kyzzy  
the student pedagogy-psychology direction  
Ferghana state university

*Abstract. Currently, one of the important tasks facing our youth is to choose a profession that corresponds to their capabilities, interests, abilities. Choosing a profession is one of the most important choices in every person's life. A profession is not only a source of income, but also an activity on which the bulk of life is spent.*

*Also, a person's life largely depends on his profession. In this article made an analysis of psychological-social sides of professional orientation in education. Moreover, psychological causes of professional orientation of teenagers are considered from a scientific and psychological point of view.*

*Key words and expressions: professional orientation, psychological accompaniment, professional form, professional self-confession, professional skill.*

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunini ro'yobga chiqarish har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lif va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik puxta o'zlashtirishga qodir, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi [1; 6].

Insonning kasbiy shakllanishi va mutaxassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo'lidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib uning yoshiga hamda shaxsining taraqqiyotiga mos holda boradi. Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mutaxassisning mahorat darajasiga erishish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan o'zaro aloqadordir.

Kasb tanlash o'smirlar uchun muhim muammolardan biridir. Tanlov doirasi qanchalik keng bo'lsa, u shunchalik psixologik jihatdan murakkablashib boradi. Shaxsning subyektiv moyilliklari hamda u yoki bu faoliyatga qobiliyatligi bir butunlikni tashkil etadi. Qiziqish va moyillik faoliyat jarayonida shakllanadi va o'zgarib boradi. Biroq o'smirlarda yaqqol ifodalangan, barqaror va faol moyillik har doim ham kuzatilmaydi. Kasb tanlash arafasida turgan o'smirlarning mazkur sohaga qanchalik mos, moyil ekanligi faqatgina faoliyat kuzatuv, nazariy tajriba jarayonidagina aniqlanadi. Kasb tanlash motivlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar juda ko'p bo'lib, ular bir-biri bilan o'zaro mutanosiblikka ega. O'smirning kasb tanlashiga ta'sir etish kuchiga ko'ra asosiy o'rinni do'stlari va o'rtoqlari bilan bir-birini tushunish munosabatlari tashkil etadi. Ikkinchi o'rinni tez ta'sir etuvchi ommaviy axborot vositalari - kitoblar, gazeta, jurnal, kinofilm, teleko'rsatuvlar, ayniqsa, Internet egallaydi. Uchinchi o'rinda pedagogik jamoa, sindf rahbari, fan o'qituvchilari, ta'lif muassasasi direktori va o'rindbosarlari, mahalladoshlari turadi. To'rtinchi o'ringa oiladagi bevosita ma'naviy-ma'rifiy muhitni qo'yish mumkin. Besinchi o'rinni o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayoni egallaydi. Ya'ni, o'spirin qanchalik yuqori darajada o'zlashtirsa o'quv fanlari uning kasb tanlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatib o'z samarasini beradi. Keyingi navbatda darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy-foydali va ishlab chiqarish mehnatini ko'rsatish mumkin.

O'smirlarda biror o'quv faniga ishtiyoq natijasida ularda har xil kasblarga qiziqish paydo bo'lgach, tanlangan kasbni o'zlashtirish bilan bog'liq fanga qiziqish tobora ortib boraveradi. Natijada fan to'garak mashg'ulotlariga va fakultativ kurslarga qatnashish ishtiyoqi vujudga keladi. O'smir bu imkoniyatdan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq, deb ta'kidlamoqchimiz.

Kasb tanlash o'smirda kasblar olami va ularning insonga hamda uning xususiyatlariga qo'yiladigan talablar haqida tasavvurlar bo'lishini taqozo etadi. Ba'zan ularning har ikkisi ham o'smirlarda yetishmasligi mumkin. O'smirlarda kasblar haqida yaqqol tasavvur bo'lmasligi sababli, ular ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb qanday shaxsiy fazilatlarni talab qilishini tushunib yetmaydilar. O'z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni

egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar. Biroq hozir mazkur ko'ngilsiz holatlarning oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Bular: kasblarni o'rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tavsiflash va aniq qilib ifodalash; o'qituvchining kasblar bo'yicha batafsil targ'ibot ishlari olib borishi, kasblar yuzasidan maslahatlar berish, o'smir va uning ota-onasi bilan birga kasbga yo'naltirish tadbirlarini ko'rib chiqishi; o'smirlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish; psixodiagnostik va kasb tanlash usullarining amaliyotga tatbiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish; joylarda zamon talabiga mos kasb tanlash xonalarini tashkil etish; kasb tanlash targ'iboti yuzasidan o'smirlarni ommaviy axborot vositalariga jalb qilish va psixologik jihatdan tayyorlashdan iborat ta'lif konsepsiyasining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

O'smirlarning qiziqlishi, mayli, intilishi, qobiliyati, iste'dodlari asosida tanlagan kasblariga to'g'ri yo'naltirish ular uchun katta hayotiy masaladir. Kasb tanlash jarayonida o'spirinlarga o'qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilik, o'z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishlari kerak. Zero, bu amaliy faoliyat fuqarolik jamiyatni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Psixologiya fanida kasbiy shakllanish jarayonini davrlashtirishning bir necha variantlari ishlab chiqilgan. Bu borada rus olimi T.V.Kudryavsev shaxsning kasbga munosabati va faoliyatni bajarish darajasi mezoniga ko'ra kasbiy shakllanishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatgan:

- 1) kasbiy moyillikning paydo bo'lishi va shakllanishi;
- 2) kasbiy ta'lif va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish;
- 3) kasbiy faoliyatga kirishish, jamoada o'z o'rnini topishga faol intilish;
- 4) kasbiy mehnatda shaxsning o'zini to'liq namoyon etishi [2; 16].

Mazkur tasnidfa keltirilgan har bir bosqichda kasb tanlashga undagan motivlarning kuchi va sifati muhim ahamiyatga egaligi ko'rsatib o'tilgan.

Rus olimi E.A.Klimov esa insonni mehnat subyekti sifatida talqin etib kasbiy yo'nalgan davrlashtirishni quyidagicha asoslab bergen:

- 1) o'yindan oldingi bosqich (4 yoshgacha bo'lgan davr) – kishining keyingi rivojlanishi va mehnatga kirishuvi uchun asos bo'lgan idrok qilish vazifalarini o'zlashtirish;
- 2) o'zin bosqichi (5-8 yosh) – inson faoliyatining "asosiy mazmuni"ni o'zlashtirish;
- 3) o'quv faoliyatini o'zlashtirish bosqichi (8-12 yosh) - faoliyatni rejalashtirish, o'zini-o'zi nazorat va tahlil qilish;
- 4) optasiya bosqichi (12-17 yosh) – kasb-hunar ta'lifi muassasalarida kasb tanlash davri;
- 5) adept bosqichi (17-20 yosh) –tanlangan ixtisoslik bo'yicha kasbiy tayyorgarlik;
- 6) adaptant bosqichi (20-23 yosh) –kasbning ichiga kirish va unga ko'nikish;
- 7) Internal bosqich (23-26 yosh) – kasbiy tajriba to'plash;
- 8) kasbiy mahorat bosqichi – mehnat faoliyatini malakali bajarish;
- 9) obro'e'tibor bosqichi – mutaxassis tomonidan yuqori malakani o'zlashtirish;
- 10) ustozlik bosqichi –mutaxassis tomonidan kasbiy tajribani shogirdlarga berish, o'z maktabini yaratish [3; 38].

Shaxsda kasbiy o'zligini anglash shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy mezonlardan biri sifatida ham bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin:

1. Kasblar olami haqidagi aniq – ko'rgazmali tasavvurlarning paydo bo'lish davri.

Bu davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turli-tuman tasavvurlar

shakllanib boradi. Boshlang‘ich ta’limda esa yetakchi o‘quv-biluv faoliyatida o‘quvchining kasblar haqidagi tasavvuri va tafakkuri yanada kengayib boradi.

### 2. O‘zini kasbiy bilish davri.

Ko‘plab kasblar haqidagi tasavvurlarni o‘zlashtirib olgach, o‘quvchi ularni u yoki bu shaklda qo‘llay olishi kerak. Kasblar haqida yetarli bilim, ko‘nikma va tayyorgarlikka ega bo‘limganlari sababli ba’zi o‘quvchilar o‘zlarini biror kasbiy sohada namoyon eta olmaydilar. Biroq ularda yangi yetakchi faoliyat – tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o‘zini bilishga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchli namoyon bo‘ladi. Aynan mana shu ehtiyoj o‘zini kasbiy sohada ham aniqlashiga ta’sir ko‘rsatadi.

### 3. O‘zini kasbiy aniqlash davri.

Ushbu bosqichda kasbiy o‘zlikni anglash yakunlanadi. Bu davr matabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. O‘quvchida kasbni o‘rganishning aniq yo‘nalishi, barqaror qiziqishlar, kasbning talablariga mos bo‘lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi kuzatiladi. [4; 65].

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o‘ta muhim bosqichi bo‘lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi faqatgina yosh xususiyatiga bog‘liq emas, u ma’lum yoshga kelib o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi.

O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish – ularni shaxsiy moyillik, layoqat, qiziqishlari asosida hamda jamiyat talablariga mos holda ongli kasb tanlashga tayyorlash bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy faoliyatdir. Ushbu faoliyatni aniqlash maqsadida biz empirik taddiqotlarni umumiyligi o‘rtalagi maktab bitiruvchilarida L.Yovaysh va G.Rezapkinalar ishlab chiqqan hamda moslashtirgan “Qaysi kasbga moyilligingizni bilasizmi?” so‘rovnomasini o‘tkazdik. So‘rovnoma jami 80 ta o‘quvchi qatnashdi hamda o‘z fikrlarini bildirdi. Ushbu so‘rovnoma yoshlarga moyilligi mavjud bo‘lgan kasblar haqida qo‘srimcha ma’lumot olishga ilmiy imkoniyat yaratadi.

#### 1-jadval

“Qaysi kasbga moyilligingizni bilasizmi ?” metodikasining tahliliy natijalari

T.r.	Yo‘nalish	A	B	C
1.	Aniq fanlar	35 %	25 %	40 %
4.	Tabiiy fanlar	46 %	26 %	28 %
7.	Ijtimoiy fanlar	62 %	29 %	9 %
8.	Xorijiy tillar	57 %	29 %	14 %

#### “A” guruh

Odamlar bilan ishslashga moyilligi bo‘lgan toifa. Ularga boshqaruv, ta’lim-tarbiya, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq, masalan, maishiy xizmat ko‘rsatish xodimi, tibbiyot xodimi, axborot-ma’lumot to‘plash va tarqatish bo‘yicha xodim va shu singari kasblarni tanlash maqsadga muvofiq. Ular odamlar bilan muloqot o‘rnatishga, har xil insonlar bilan tez do‘stlashib ketish layoqatiga, odamlarning kayfiyatini tushunadigan va shunga mos muomala qila oladigan insonlar toifasiga kiradi. Rejalashtirish-iqtisodiy faoliyatga moyillik kuchli bo‘ladi. Ular hisobchi, iqtisodchi, matnlarni tahlil etish va ularni tahrir etish (muharrir, tarjimon, tilshunos), binolar tarixini chizish (chizmachi, topograf) bilan bog‘liq ishlarni qiynalmasdan o‘zlashtira oladilar. Chunki ular ishni tizimli, puxta va tartibli bajarishga moyil bo‘ladilar.

### “B” guruh

Tadqiqotchilikka moyillik. Bu toifaga kiruvchilar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishga yo‘naltirilgan kasblarni tanlasalar maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularda maxsus bilimlarni o‘zlashtirishga layoqatlik bilan bir qatorda masadli ishlashni, muammollar ustida izlanishni, mulohaza yuritishni, bevosita xulosa chiqarishni va tahlil qilishga ichki psixologik yo‘nalganlik mavjud. Ular estetik faoliyat bilan shug‘ullanishga moyil bo‘ladilar. Ijodkor shaxs sifatida tasviriy san’at, musiqa, badiiy-adabiy, aktyorlik va sahnada ishslash layoqatiga ega.

### “C” guruh

Amaliy faoliyatga moyillikni bildiradi. Ular ishlab chiqarish va tovarlarga ishlov berish, mashina mexanizmlari va asbob-uskunalarini to‘plash hamda yig‘ish, elektron va mexanik jihozlarni ta’mirlash hamda ularga ishlov berish, binolarni qurish, ta’mirlash, transportlarni boshqarish sohalari bilan bog‘liq kasblarni tanlashi mumkin. Ekstremal faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga moyil bo‘ladilar. Ular sportga, sayohatga, qidiruv ekspeditsiya ishlariga, muhofaza va operativ-qidiruv faoliyati hamda harbiy xizmatchi bo‘lishga layoqatli. Shuningdek, jismoniy jihatdan sog‘lom va irodali inson bo‘lishni muhim deb hisoblaydilar.

Mazkur so‘rovnama natijalari tahlilidan o‘quvchi-yoshlarda ijtimoiy ahamiyatga va tashqi yo‘nalgan motivlarning shakllanish darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Bu ma‘lumotlar kasbiy ta’lim jarayonida yoshlarning tanlagen kasbi haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalari shakllanishi bilan uni tanlashga undagan motivlarning kuchi hamda sifati ham ortib borishini ko‘rsatib turibdi. To‘g‘ri tanlovga undagan motivlar yanada barqarorlashib boraveradi.

O‘smirlar tomonidan kasb tanlash motivasiyasining muvaffaqiyatli namoyon bo‘lishi: muntazam ravishda kasblar olamiga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirib borish; individual va guruhiy maslahat ishlarini tashkiletish; o‘smirlarning o‘zları qiziqqan kasb egalari bilan bevosita muloqotda bo‘lishlari uchun sharoit yaratish; kasb uchun muhim xususiyatlarning mayjudligini aniqlash maqsadida turli vaziyatlar yaratish va ish-o‘yinlarida o‘quvchilar ishtirokini ta’minalash; o‘zini-o‘zi kasbiy tarbiyalash, nazorat qilish va adekvat baholash ko‘nikmasini shakllantirib borishga bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, insonning kasbiy shakllanishida ijtimoiy vaziyatlar, ma‘naviy muhit va yetakchi faoliyat muhim omil hisoblanadi. Kasbiy ta’lim oila va ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan kasb tanlangunga qadar davom etgan ta’lim-tarbiya negizada, ya’ni kasb tanlashga psixologik tayyorlash hamda mehnat faoliyatiga ruhan tayyorgarlikka ko‘maklashadigan amaliy vosita, omil sifatida davom ettirilgach, u albatta ijobjiy natija beradi, deb ta’kidlamoqchimiz.

### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. 2020 yil, 23 sentyabr, O‘RQ-637. //Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 yil, 03/20/637/1313-son.
2. Кудрявцев Т.В. Психология профессионального обучения и воспитания. - М., 1997.
3. Климов Е. А. Психология профессионального обучения и воспитания. - М., Просвещение, 1990.
4. Юлдашев, Ф. А., & Юлдашева, М. Б. Профессиональная ориентация подростков.- ЛИЧНОСТЬ В КУЛЬТУРЕ И ОБРАЗОВАНИИ: ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ, РАЗВИТИЕ, СОЦИАЛИЗАЦИЯ: МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ